

AXBOROT TAHDIDLARI: INSON ONGI VA QALBIGA TA'SIRI

Ulug'bek Ochilov,

Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada hozirgi kunda internet xalqaro axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan axborot va ruhiy tahdidlarning inson ongi va qalbiga salbiy ta'siri tahlili tadqiq qilinadi. Terrorizm, ekstremizm, mafkuraviy-axborot xurujlariga qarshi kurash yo'llari va oldini olish chora-tadbirlari ko'rsatib beriladi. Ayniqsa, bir so'z bilan "jaholat" deb ataladigan bunday xurujlarni ilmiy ma'rifat bilan bartaraf etish asosiy yo'l ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Terrorizm, ekstremizm, mafkura, profilaktika, jaholat, ma'rifat.

Аннотация. В данной научной статье исследуется негативное влияние информационных атак и психологических угроз на разум и душу человека, которые в настоящее время распространяются через международную информационную сеть Интернет. Будут показаны пути борьбы с терроризмом, экстремизмом, идеологическими и информационными атаками и меры предотвращения атак. В частности, говорится, что основным способом устранения таких нападков, которые называют «незнанием» со знанием, является основной способ.

Ключевые слова: Терроризм, экстремизм, идеология, профилактика, невежество, просвещение.

Annotation. In this scientific article, the analysis of the negative impact of information attacks and psychological threats on the human mind and soul, which are currently distributed through the international information network of the Internet, is researched. Ways to fight against terrorism, extremism, ideological and informational attacks and measures to prevent attacks will be shown. In particular, it is said that the main way to eliminate such attacks, which are called "ignorance" with knowledge, is the main way.

Key words: Terrorism, extremism, ideology, prevention, ignorance, enlightenment.

Kirish. Kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi va tarqalishi zamonaviy sivilizatsiyaning O. Toffler ta'biri bilan aytganda, Axborot jamiyati, deb ta'riflagan davrga kirib kelishiga olib keldi, bunda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili axborotni ishlab chiqarish, uzatish, qayta ishlash va undan foydalanish hisoblanadi. Texnologik yutuqlar cho'qqisida axborotning yangi realligi davlat va jamiyat institutlari faoliyatida, global iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlarda, har bir insonning amaliy hayotida asosiy rol o'ynay boshladi. Biroq, shunisi ham ma'lumki, informatsion inqilob o'zining ulkan afzalliklari bilan bir qatorda jamiyat xavfsizligini ta'minlash sohasida ham qator chuqur muammolarni keltirib chiqardi. Bu birinchi navbatda terrorchilik mazmunidagi axborot tahdidlariga tegishli.

Adabiyotlar tahlili. Axborot terrorizmi va ekstremizm zamonaviy ilmiy adabiyotlarda dolzarb muammo sifatida yoritiladi. Tadqiqotchilar internet va axborot texnologiyalari yangi mafkuraviy tahdidlarni kuchaytirayotganini ta'kidlaydilar. A. S. Butenko ekstremizmni ongni manipulyatsiya qilish va adovatni kuchaytiruvchi mafkura bilan bog'lasa, A. X. Valeeva hamda Yu. A. Lapunova internetning global va tezkor xususiyatlari ekstremistik g'oyalar tarqalishiga qulaylik yaratishini qayd etadilar. R. V. Upornikov, Ye. A. Starosvetkiy va G. Veyman internet orqali olib boriladigan destruktiv

ta'sirlar, targ'ibot va psixologik urush usullarini tahlil qiladilar. Mahalliy mualliflar esa bu tahdidlarga qarshi ma'rifat va axborot madaniyatini oshirish muhimligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda axborot terrorizmi va ekstremizm muammosini o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mahalliy va xorijiy adabiyotlar o'rganilib, turli olimlarning qarashlari solishtirildi. Shuningdek, internet muhitining ekstremistik va terroristik g'oyalarni tarqatishdagi o'rni tahlil qilindi. Natijada, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. "Axborot terrorchiligi" atamasi deganda, odatda quyidagilar tushuniladi:

1. Axborot vositalaridan terrorchilik maqsadlarida foydalanish – siyosiy maqsadlarda jismoniy zo'ravonlikni qo'llash yoki qo'llash bilan tahdid qilish, jamiyatni qo'rqitish va beqarorlashtirish orqali aholiga yoki davlatga ta'sir ko'rsatish;

2. Odamlar uchun halokatli xavf-xatar, ulkan mulkiy zarar yetkazish yoki boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqish xavfini tug'diradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini tartibsizlashtirish bo'yicha harakatlar, agar ular jamoat xavfsizligini buzish, aholini qo'rqitish yoki hukumat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishga ta'sir qilish maqsadida amalga oshirilsa, shuningdek xuddi shu maqsadlarda qayd etilgan harakatlarni sodir etish bilan tahdid qilish.

Ushbu holatda shaxs va jamiyatga keng va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatish bilan hamda odamlarning turmush tarzi va ongi, xulq-atvoridagi ijtimoiy-madaniy dunyoqarash stereotiplariga destruktiv ta'sirlarning turli elementlari bilan bog'langan informatsion ekstremizm va terrorizmning namoyon bo'lish shakliga alohida e'tibor qaratish lozim.

Rossiyalik tadqiqotchi A. S. Butenkoning fikricha ekstremizmning asosiy belgilari quyidagicha mavjud:

-Ilgari surilayotgan maqsadlarga erishish uchun noqonuniy kuch ishlatishdan foydalanish (yoki foydalanish tahdidi);

-Ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilishning soddalashtirilgan variantlarini ilgari surish;

-Ijtimoiy-siyosiy, milliy, irqiy, diniy adovat va dushmanlik asosidagi mafkuradan foydalanish.

Zamonaviy jamiyatda ekstremizm o'z mazmuniga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linishi mumkin:

1. Zo'ravonlik, kuch ishlatishni amalga oshirishni o'z ichiga olgan zo'ravonlik ekstremizmi;

2. So'z ekstremizmi yoki informatsion ekstremizm, bunda diniy, milliy va boshqa mazmundagi ekstremistik g'oyalarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar, so'z yordamida axborot jamiyati a'zolariga destruktiv ta'sir ko'rsatadi.

A. X. Valeeva Internet tarmog'ini ekstremistik faoliyat uchun qulay maydon, deb hisoblaydi,[1] ushbu makonda iste'molchilarning katta auditoriyasida ekstremistik mazmundagi materiallarni statistik veb-sahifalar orqali hamda chatlar, bloglar va forumlarda axborotlarning interaktiv almashuvlari orqali ham tarqatish mumkin. Muallif Internetning global xususiyatini ta'kidlab, global kompyuter tarmog'ida ekstremizmning namoyon bo'lishi mexanizmlarini ham tavsiflaydi.

Yu. A. Lapunova Internetning xususiyatlarini quyidagicha keltiradi:

cheklov yoki senzuraning qonunchilik normalari shaklida milliy nazoratning yo'qligi;

Ma'lumotlarni o'ta tezkorlikda uzatish;

Ma'lumotlarni uzatish vositalarini arzon o'rnatish, saqlash va texnik xizmat ko'rsatish;

Multimedia sohasidagi interaktiv muhit uchun oddiy dasturiy ta'minot;

Nashrlar uchun mavzular manbasi sifatida Internet resurslaridan foydalanuvchi an'anaviy OAVdan foydalanish.[2]

Internetda ekstremizm va terrorizmning tarqalishiga axborot resurslari va aloqa vositalarining arzon hamda qulayligi sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda akkaunt, blog va guruhlar yaratish juda osonlashgan.

R. V. Upornikov informatsion ekstremizmni axborot texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan destruktiv ta'sir shakli sifatida izohlaydi.[3] Ye. A. Starosvetskiy esa zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ekstremistlar katta zarar yetkazish uchun endi qurol emas, balki raqamli texnologiyalardan foydalanayotganini ta'kidlaydi.[4]

Ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va chatlar ekstremistlar bilan muloqot qilishda muhim rol o'ynaydi. Diniy ekstremistlar tomonidan sotsiumda sun'iy keskinlik uchun foydalaniladigan internet-forum va chatlardagi nizolar virtuallikdan reallikka aylanib, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasidagi to'qnashuvlarni sodir etadi. Terrorchilar va ekstremistlar tomonidan Internetdan foydalanish bo'yicha YeXHT onlayn forumlari ekspertlari ijtimoiy tarmoq vositalarini quyidagicha ko'rsatishadi:

tematik chatlar;

bloglar;

xususan ko'pincha yoshlar tashkil topgan virtual jamoalar shakllanadigan ijtimoiy tarmoqlar saytlari.

Internetda diniy ekstremizm tarqalishining sabablari quyidagicha:

1.Davlat nazoratining yetarli emasligi.

2.Internetda ekstremizmga qarshi kurashishda kompleks yondashuvning yetarli emasligi.

3.Ekstremistik materiallarni aniqlash bo'yicha ekspertiza jarayonining uzoq davom etishi profilaktik choralarni sustlashtiradi.

4.Internetdagi anonimlik va konspiratsiya texnologiyalari ekstremistik materiallarni joylashtirgan shaxslarni aniqlashni qiyinlashtiradi.

Terrorchi saytlar odatda destruktiv guruhlar tarixi, rahnamolar, “jangovar operatsiyalar” va mafkuraviy targ‘ibotga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ularda siyosiy maqsadlar, “tahliliy” maqolalar hamda “dushmanlar”ga qarshi nafrat va murosasiz kurash g‘oyalari keng targ‘ib qilinadi.

Millatchilik va separatistik kayfiyatdagi terrorchilik tashkilotlarining veb-saytlarida ko‘pincha bahsli, muammoli hududlar xaritalari muayyan davlatning rasmiy chegaralariga zid ravishda ko‘rsatiladi. Amerikalik mashhur terrorolog G. Veyman terrorchilarning internetdan foydalanishining sakkizta usulini ajratib, quyidagicha tahlil qiladi:

1. psixologik urush olib borish;
2. axborot izlash;
3. terrorchilarni tayyorlash;
4. pul-mablag‘ yig‘ish;
5. targ‘ibot;
6. yollash;
7. tarmoqlarni tashkil etish;
8. terrorchilik harakatlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish.

Ushbu destruktiv faoliyatlarning aksariyati tashkiliy, yordamchi va amaliy xususiyatga ega bo‘lib, ularning ichida psixologik urush va tashviqot alohida ahamiyatga ega. Terrorchilar internetdan foydalanib, psixologik ta’sir orqali qo‘rquv va nochorlik hissini kuchaytirishga intiladilar. Shu maqsadda turli tahdidli xabarlar va zo‘ravonlik aks etgan materiallar tarqatiladi.

Xulosa. Yoshlar orasida mutaassib forumlar va buzg‘unchi g‘oyalarning tarqalishi jiddiy muammo hisoblanadi. Yoshlarning ishonuvchanligi va faolligi radikal oqimlar uchun qulay sharoit yaratadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng qo‘llanilishi axborot almashuvini osonlashtirsa-da, salbiy va destruktiv xabarlarining tarqalishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu bois yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish, axborotni to‘g‘ri saralash va undan himoyalanih ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Valeev A. H. Combating manifestations of extremism on the Internet // Business in the Act. 2011. № 6.
2. Lapunova J. A. Spread the ideology of extremism and terrorism in cyberspace: problems and ways of their solution // Proceedings of Academy of Ministry of Internal Affairs of Russia. 2017. № 3 .
3. Upornikov R. V. Politic-legal technology information counteraction to extremism in Russia. Rostov-on-Don, 2007.
4. Starosvetsky E. A. Extremism in the modern Russian society//scientific statements, Belgorod State University. Belgorod, 2008. № 5.